



INSON HAYOT FAOLIYATIDAGI XAVFLAR VA ULARDAN HIMOYALANISH

HIMOYALANISH

Turdiyeva Gavhar

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7801135>

ARTICLE INFO

Received: 26th March 2023

Accepted: 04th April 2023

Online: 05th April 2023

KEY WORDS

Hayot faoliyati, xavfsizlik, aqliy mehnat shakli, xavfli omillar, xavfli faoliyat, ekologik xavfsizlik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada inson hayot faoliyati uchun tashqi muhitda bo'ladigan o'zgarishlar, hayot faoliyati, hayot faoliyati xavfsizligi, hayot faoliyati xavfsizligida insonning hayotida sodir bo'ladigan turli shakldagi xavflarni bartaraf etish va ulardan himoyalanih yo'llar, aqliy mehnat shaklining bir necha turlari haqida batafsil bayon qilingan.

Kirish:

Inson hayot faoliyati uchun tashqi sharoitda bo'ladigan o'zgarishlar haqida yetarli darajada axborotning bo'lishi va bu axborotni qaysi mohiyatda foydalanish imkoniyatini belgilovchi va unga tayyorgarlik ko'rish uchun tabiiy muhofaza chora-tadbirlariga ma'lum ma'noda tayyorgarlik bo'lishi insonning yashash uchun kurash sifatining asosi sanaladi. Atrof-muhit ko'rinishi haqidagi ma'lumot inson uchun shu sharoitga moslashish imkoniyatini yaratadi va buni uning yetti muchasi sifatidagi axborot qabul qilish tizimlari yordamida amalga oshiriladi.

Inson faoliyatining turli-tuman qirralari mavjud bo'lib, turli xil hududlarda yashovchilar uchun o'ziga xos bo'lgan faoliyat turlari bo'ladi. Bu faoliyat turlari eski zamonlardan beri har xil shaklda takomillashib kelgan. Masalan, shaharlar hududida yashagan aholining faoliyat tarzi qishloqlarda yashovchilar faoliyatidan ancha farq qilishi ma'lum.

Material va tadqiqot usullari:

Ma'lumki, keyingi vaqtlarda aholining shaharlashish darajasi o'sganligi munosabati bilan va qishloqlarga zamonaviy texnika va texnologiyalar kirib kelishi natijasida bu tafovut kamayib bormoqda. Ayrim takomillashgan mamlakatlarda bu tafovutlar deyarli yo'qoldi deb aytish mumkin. Shuning uchun ham inson faoliyatini bugun taraqqiyotini nazarda tutib, inson faoliyati ikkita turga: ya'ni jismoniy mehnat va aqliy mehnat turlariga bo'lish mumkin.

Bunday bo'linish, albatta, birmuncha umumiy shaklda nisbiy bo'lsa ham, bunday bo'lib qarash faoliyat turlariga baho berishda ancha yengillik paydo qiladi Inson mehnat faoliyati jarayonida salomatlikka yomon ta'sir qiladigan omillarga duch keladi, mazkur omillarni insonga ta'sir darajasini baholash niyatida chegaradagi ruxsat etilgan daraja yoki aralashma tushunchasi kiritilgan. Bu daraja miqdori yuqori bo'lsa, odam organizmida xavfli faoliyat paydo bo'ladi va kasb kasalligiga duch keladi.



Inson hayot faoliyati — insonning o'z manfaatlarini qondirish niyatidagi kunlik mehnat faoliyati va dam olishi, ya'ni insoniyat yashashining asosiy shaklidir. Inson yashash mobaynida o'zining moddiy va ma'naviy manfaatlarini qondirish niyatida yashash makonini, sharoitini o'zgartiradi. Darhaqiqat, inson o'z faoliyatini tabiiy, maishiy, ishlab chiqarish, shahar muhiti va favqulodda muhitlar sharoitida amalga oshirishi mumkin.

Inson har qanday sharoit muhitida faoliyat yuritmasin inson va muhit orasida o'zaro qarama-qarshi ta'sir paydo bo'ladi. Hayot faoliyati xavfsizligi - maqsadga olib boruvchi yo'l, uslub va vositalar jamlanmasidir. U atrof-muhit va insoniyatga tahdid qiluvchi xavflarning tabiatini, ularni paydo bo'lish va ta'sir qilish qonuniyatlarini, xavflarni yuzaga kelishini oldini olish tadbirlarini, xavflardan himoyalaniş usullari va xavf ta'sirida paydo bo'lgan salbiy oqibatlarini yo'q qilish yo'llarini o'rganuvchi ilmiy bilimlar sohasi sanaladi.

Binobarin, issiqlik elektrostansiyalarida, metallurgiya sanoatida, avtomobilsozlikda yoqilg'ilarni yoqish natijasida hosil bo'ladigan zaharli gazlar atmosferani ifloslantirmoqda. Inson mehnat faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar, inson umrining ko'p vaqtini mehnat egallaydi, agar inson ish faoliyatida o'rnatilgan hamma tartib-qoidalarga rioya qilmasa, bu, o'z vaqtida, inson mehnat faoliyatiga va sog'ligiga jiddiy ta'sir qilishi mumkin. Ishlab chiqarish sharoiti - bu insonni o'rab turgan atrof muhitning bir qismini tashkil etib, uning tarkibiga tabiat-iqlimga bog'liq bo'lgan, shuningdek insonning kasbiy faoliyatiga ta'sir qiluvchi xavfli va zararli omillar kiradi.

Natijalar va ularning muhokamasi:

Hayot faoliyati xavfsizligi insonning hayotida sodir bo'ladigan turli shakldagi xavflarni bartaraf etish va ulardan himoyalaniş yo'llarini o'rganishga qaratilgan nazariy fandır. U keng qamrovli ilmiy-amaliy izlanishlar va tadqiqotlar yordamida shakllanib, ilmiy-nazariy izlanishlar to'g'risida paydo bo'lgan qonunlar, nizomlar, standartlar, ko'rsatmalar, qoidalar va sanitar-texnik me'yorlar, shuningdek ularni o'rganish haqida uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini vujudga keltirish, uni rivojlantirish muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston davlatining ijtimoiy-sotsial taraqqiyotining muhim omilini fuqarolarning mehnat qilishi va ularning hayotiy faoliyatini muhofaza etish tashkil qiladi. Shu sababdan ham ishlab chiqarish tarmoqlarining muhim maqsadi, nafaqat yuqori ko'rsatkichda va sifatda mahsulot ishlab chiqarish, balki ishlab chiqarish sharoitlarini yaxshilash, ishlab chiqarishda ishlovchilarning jarohatlanishiga va kasb kasalliklariga uchrashlariga olib keladigan manbalarni yo'qotishdan iborat.

Oxirgi vaqtlarda ko'pgina ishlab chiqarish tarmoqlarida ish muhitlarini yaxshilangan bo'lsa-da, ba'zi bir sohalarda bunday ko'rinishlar talab darajasida emas. Bunga sabab ishlab chiqarish dastgohlarining eskirganligi, ishlab chiqarish sharoiti talablarining buzilishi, xavfsizlik vositalarining kamligi yoki yo'qligidir. Shular natijasida ishlovchilarning jarohatlanishi, kasallanishi sodir bo'lib, natijada mehnat nogironiga aylanib bormoqda.

Shuning uchun ishlab chiqarish tarmoqlarida xavfsiz sog'lom mehnat sharoitini yaratish, ish jarayonidagi kamchiliklarni bartaraf qilish, mehnatni ilmiy tartibda tashkil qilish, xavfsiz mehnat uslublarini qo'llash, mehnat charchoqliklarini chiqarish tadbirlarini qo'llashni talab qiladi. Bu faoliyatlar mehnatni muhofaza qilish to'g'risida qabul qilingan qonunlar, hukumat qarorlari va zarur standartlar yordamida amalga oshiriladi. Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning ikkinchi qirrasini atrof muhitni muhofaza qilish tashkil qiladi.



Xavfli omillar deganda - muayyan bir muhitda inson sog'ligiga zarur keltirishi yoki organizmni halokatga olib kelishi tushuniladi. Zararli omillar esa - insonning ish faoliyatiga salbiy ta'sir qilishi yoki biror-bir kasallikka olib keluvchi holat tushuniladi. Ish faoliyatida ishning qandayligiga va ish joyining qanday tashkil qilinganligiga bog'liq. Xavfli va zararli omillarning ta'sir xususiyatlari ularning tarkibiga, tizilishiga, fizik-kimyoviy xossalriga, miqdoriga, inson tana a'zolariga ta'sir qilish yollariga, ko'rinishiga, uchuvchanligiga, suvda, yog'da eruvchanligiga va boshqa ko'rsatkichlariga bog'liq.

Ba'zi bir xavfli omillarga - ishlab chiqarishdagi zaharli kimyoviy, biologik moddalar, ionlantirish xususiyatiga ega bo'lgan nurlar va boshqa kuchli ta'sir qiluvchi kuchlar kiradi. Zaharli kimyoviy moddalarning yo'l qo'yiladigan oxirgi darajasidan yuqori miqdorda, yoki biologik xavfli ta'sirlarning inson tanasiga o'tishi natijasida kuchli kimyoviy, yoki biologik zaharlanish yuz berib, insonning o'limiga olib keladi.

Aqliy mehnat uchun «gipokineziya» xarakterli sanalib, bu nafaqat inson faoliyatining salmoqli darajada pasayishiga, o'z vaqtida, inson organizmning buzilishiga va haddan tashqari ziyod his-hayajonga berilishiga olib keladi. Gipokineziya - ishlab chiqarishdagi noxush omillardan sanaladi. Shuning uchun aqliy mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi kishilarda yurak xastaligining kelib chiqish darajasi yuqori hisoblanadi. Aqliy mehnat shaklining bir necha turlari mavjud: operator, boshqaruvchi, ijodiy mehnat, tibbiyot xodimlari mehnati, o'qituvchilar, o'quvchilar va talabalar mehnati. Bular bir-biridan o'zining mehnat jarayonidagi ishtiroki, his-hayajon darajalarining turli darajada bo'lishligi bilan farq qiladi.

Xulosalar:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bugungi kunning eng jiddiy masalalari qatoridan biri - ekologik xavfsizlikni ta'minlash sanaladi. Sababi insoniyat o'z taraqqiyotining turli vaqtlarida bu muammolarga duch kelgan, lekin bugungi kecha-kunduzda bu masalalarning yechimini kechiktirmay hal etish joiz sanaladi. Darhaqiqat, atrof-muhitni ifloslantiruvchi bir qator sanoat, qishloq xo'jaligi va qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmoqlarida foydalaniladigan, olinadigan, tashiladigan, saqlanadigan zaharli va zararli moddalarning atmosferaga, atrof muhitga chiqib ketishi, to'kilishi, tarqalishi yer, suv va havoning ifloslanishiga olib kelmoqda.

References:

1. Yormatov G 'Y. «Hayot faoliyati xavfsizligi» ma'ruzalar matni. T., 2000.
2. Yormatov G 'Y., Isamuxamedov Yo.U. «Mehnatni muhofaza qilish». Darslik. T.: «O'zbekiston», 2002.
3. Yormatov G 'Y., Hamroyeva A. L. «Atrof-muhitni ifloslantiruvchi omillar va ularga qarshi kurash chora-tadbirlari». O'quv qo'llanma. T., 2002.
4. Yormatov G., Yuldashev O., Hamraeva A. Hayot faoliyati xavfsizligi. - T., 2009.
5. Nigmatov A., Muxamedov Sh., Xasanova N. Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya menejmenli. -- T.: "Navro'z", 2014.
6. Qudratov A. va boshq. Hayotiy faoliyat xavfsizligi. - T.: "Aloqachi", 2005.